

AYOLLARDA ENG KO'P UCHRAYDIGAN GINEKOLOGIK KASALLIKLAR, ERROZIYALAR.

MISIROVA MAFTUNA TO'XTAMISH QIZI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184148>

Mavzuning dolzarbligi. Bachadon bo'yni eroziyasi (endoservikoz, bachadon bo'yni ektopiyasi) — a'zoning vaginal qismidagi shilliq qavati yaxlitligi buzilishi, defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir. Eroziya bachadon va uning ortiqlariga infeksiya kirishiga yo'l ochadi va kichik chanoqning surunkali yallig'lanish kasalliklari rivojlanishiga sabab bo'ladi, hatto bepushtlikka olib kelishi ham mumkin.

Ginekolog qabulida deyarli har ikkinchi bemorga bachadon bo'yni eroziyasi tashxisi qo'yiladi. Umuman olganda, bu kasallik bola tug'ish yoshidagi ayollarda eng ko'p uchraydigan patologiyalardan biridir. Bachadon eroziyasining eng xavfli asorati — uning yomon sifatli o'simtaga aylanishi ehtimoli mavjudligi. Shuning uchun bu kasallikni imkon qadar tezroq aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning ilmiy asosi. Patologiyaning ko'plab sabablari va uning rivojlanishiga turtki bo'luvchi omillar mavjud, ularning asosiylari:

- Gormonal buzilishlar va immunitetning pasayishi;
- Hayz sikli buzilishlari;
- Jinsiy hayotning juda erta boshlanishi, shuningdek, erta homiladorlik va tug'ruq;
- Jinsiy hamrohlarning tez-tez o'zgarishi;
- Shaxsiy gigienaga amal qilmaslik;
- Og'ir tug'ruq, abort va boshqa tibbiy manipulyatsiya natijasidagi mexanik jarohatlar;
- Vaginal kontratseptivlarni noto'g'ri ishlatish yoki noto'g'ri chayish, juda qo'pol jinsiy aloqa;
- Siydik-tanosil tizimining yallig'lanishli va infeksiyon kasalliklari, shu jumladan ularni kech va noto'g'ri davolash;
- Bakterial va virusli kasalliklar;
- Irsiyat.

Bachadon bo'yni eroziyasi bilan bog'liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo'qligi va ko'p hollarda o'zini umuman namoyon qilmasligi bilan murakkablashadi. Ammo eroziya rivojlanib borishi bilan bemorlar o'zlarida quyidagi belgilarni aniqlashlari mumkin:

- Menstruatsiyalar orasida qonli, baʼzan esa yiringli ajralmalar ajralishi, masalan jinsiy aloqadan keyin;
- Qindan yoqimsiz hidli ajralmalar kelishi;
- Menstruatsiyaning har doimgidan koʻra uzoqroq davom etishi, koʻproq qon ketishi;
- Siydik chiqarish yoki jinsiy aloqa paytida qorinning pastki qismidagi ogʻriqlar.

Har qanday holatda, shuningdek kolposkopiya ham amalga oshiriladi (bachadon boʻyni va qinni kattalashtiruv ostida tekshirish) va onkologik kasalliklarni istisno qilish uchun eroziya yuzasidan surtma olinadi va tahlil qilinadi. Bachadon boʻynini tasvirni 25-32 marta oshiradigan optik asbob bilan tekshirish mutlaqo ogʻriqsiz hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI. Kasallikning aniq bir belgisi mavjud emasligi, bemorni shikoyat qilishiga sabab boʻluvchi holatlar kuzatilmashligi tufayli patologiyani tashxislash biroz murakkab hisoblanadi.

Bemorni tekshirish vaqtida ginekolog dastlab bachadon boʻynini koʻzgular yordamida tekshiradi. Natijada, uning shilliq qavatida ginekologik asbob bilan aloqa qilganda qonaydigan, sogʻlom toʻqimalar fonidagi yorqin qizil rangli dogʻ koʻrinishdagi epiteliy nuqsonlarini aniqlash mumkin. Eroziya turiga qarab, kasallikning boshqa tashqi belgilari ham mavjud boʻladi.

Chin eroziyalar yorqin pushti rangda, displaziya sohalari sariq rangda, atipik oʻchoqlar esa oqish rangda koʻrinadi. Shilliq qavat displaziyalariga gumon qilinsa, u sohadan biopsiya uchun naʼmuna olinadi va gistologik tekshiruv oʻtkaziladi.

XULOSA. Kasallik aniqlanganda undan qoʻrqmaslik zarur, ayniqsa bugungi kunda avaylovchi juda koʻp davolash usullari mavjudligini hisobga olganda. Buning oʻrniga, oʻz vaqtida davolanmaslik oqibatlaridan ehtiyot boʻlish kerak, chunki bu saraton kasalligining boshlanishiga qadar turli xil asoratlarga olib keladi.

Bugungi kunda eroziya samarali davolanmoqda, shu sababli uni uy sharoitida mustaqil davolashga, xalq tabobati vositlarini qoʻllashga hojat yoʻq, ular bir koʻrinishda samara berishdek taassurot uygʻotsa ham, mavjud vaziyatni ogʻirlashtirib yuborishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uchqun oʻgʻli, B. S. (2021). BLOOD DISEASES IN SURKHANDARYA REGION, THEIR CAUSES AND PREVENTION. International Engineering Journal For Research & Development, 6(ISPCIEI), 2-2.

2. Abdullayevich, B. E., & Uchqun o'g'li, B. S. (2021). TRANSITIONAL FEATURES OF ACUTE HERPETIC STOMATITIS IN CHILDREN AND MODERN APPROACHES TO TREATMENT. *World Bulletin of Public Health*, 1(1), 1-3.
3. Uchqun o'g'li, B. S. Bulvar And Pseudobulbar Syndrome. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 19-22
4. Madiyev Rustam Zoirovich, Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li, & Abdullaeva Dilnoza Ergashevna. (2021). EFFECTIVENESS OF ENDOVIDEOLAPAROSCOPIC TECHNOLOGY IN THE TREATMENT AND EARLY PREVENTION OF INTESTINAL OBSTRUCTION IN CHILDREN. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(7), 68-73. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/1067>
5. Dilmurodovich, A. D., Bahodirovich, G. Y., Dustqobilovich, A. K., & Uchqun o'g'li, B. S. (2021). Comparative Features of Breast Cancer in Patients with and Non-Suffering with Type 2 Diabetes Mellitus. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 68-70. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/265>